

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ADABIYOTSHUNOSLIK ILMI RIVOJIDA NURBOY JABBOROVNING O‘RNI

Obidjon Karimov,

*Namangan davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborovning yetuk adabiyotshunos, matnshunos va manbashunoslik faoliyati tahlil qilingan. Adabiyotshunosning Ogahiy lirikasi bo‘yicha e‘lon qilgan maqolalarida shoir she‘riyatining o‘rganilmagan qirralarini chuqur tadqiq qilganligi tahlillar bilan dalillangan.

Kalit so‘zlar: adabiyotshunoslik, matnshunos, manbashunos, poetika, she‘rshunoslik, “Zubdatu-t tavorix”, hamd, munojot, ta‘rix, na‘t, qasida, husni matla‘, qiyosiy-tanqidiy tahlil.

Mustaqillik sharofati bilan o‘zbek adabiyoti o‘zining qadrini topdi va topib bormoqda. Hayotimizni so‘z san‘ati deya e‘zozlanadigan adabiyotsiz tasavvur eta olmaymiz. Milliy adabiyotimiz o‘zining shonli tarixiga, boy merosiga, munosib an‘analariga ega. O‘tmishda mumtoz adabiyotimizning pok nomlariga qora bo‘yoqlar chaplangan atoqli namoyandalari asarlari xalqimiz qo‘liga yetkazib berildi. Bunda xalqimiz uchun xizmat qilgan shoir va yozuvchilarning o‘rni beqiyosdir. Shuni ham aniq aytib o‘tish kerakki, shoir va yozuvchiga baho beradigan, ularning asarlarini tahlil qiladigan soha vakillari ham borki, biz ularni adabiyotshunos olimlar, tanqidchilik ilmining bilimdonlari deya hurmatlaymiz, e‘zozlaymiz. Zamonamizning serqirra ijodkorlari, sohamizning mashhur olimlari adabiyotshunoslik ilmini izchil o‘rganishmoqda, qator tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Atoqli adabiyotshunos olim, mumtoz va zamonaviy adabiyot, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik, adabiy tanqid sohasining yetuk namoyondasi, faol jurnalist va publitsist, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov ana shunday iste‘dodlardan biridir. U adabiyotshunoslik ilmida o‘z yo‘li va uslubiga ega nuktadon olimlarimizdan.

Keyingi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shaxsiy tashabbusi va alohida e‘tibori tufayli mumtoz va zamonaviy adabiyotimizni xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib etish borasida salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. Natijada adabiy jarayonda, adabiyotshunoslikda sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Adabiyotshunosligimizning o‘rganilmay qolib kelayotgan ko‘plab sohalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilib, o‘nlab monografiyalar nashr etildi. Bizga to‘la yetib kelmagan asarlar matni, ularni nashrga tayyorlash ishlari yo‘lga qo‘yildi va bunga o‘z sohasining bilimdoni bo‘lgan matnshunos olimlar jalb qilindi. Buning natijasi o‘laroq ko‘plab unut bo‘lgan asarlar, ularning mualliflari haqidagi nodir ma‘lumotlar adabiyot muxlislariga yetib kelmoqda. Bu ezgu ishlar hozir ham davom ettirilmoqda.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

“Zubdatu-t-tavorix” – nodir manba. Bu manbaning nashr etilishi o‘zbek matnshunosligining muhim yutug‘i sifatida baholanishga loyiq. Negaki, asar nashri katta mehnat va zahmat mahsulidir. Bu nimalarda ko‘rinadi? Birinchidan, matn arab imlosidan krill yozuviga bexato tabdil qilingan. Mumtoz adabiyotimiz namunalarining ko‘plab nashrlariga egamiz. Afsuski, ularning aksariyatida xatolarni sanab adog‘iga yetish qiyin. “Bexato tabdil qilingan” jumlasini bor-yo‘g‘i uch so‘zdan tarkib topgan va uni osongina talaffuz etish mumkin. Lekin bu so‘zlar zamirida yuk benihoya og‘ir.

Muhammad Rizo Ogahiy adabiy merosi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan. Serqirra olim Nurboy Jabborov “Zubdatu-t-tavorix” asarining to‘liq ilmiy-izohli nashrini amalga oshirdi. Mazkur asarga oid salmoqli tadqiqot yaratishga erishdi. Bundan tashqari, Ogahiy lirikasi va tarjima asarlari yuzasidan ham diqqatga sazovor ilmiy izlanishlar olib bordi.

Adabiyotshunosning Ogahiy lirikasi bo‘yicha e‘lon qilgan maqolalarida shoir she‘riyatining o‘rganilmagan qirralari tadqiq qilindi. Ijodkorning hamd, munajat va na‘tlari birinchi marta Nurboy Jabborov tomonidan tahlil etildi. G‘azal, masnaviy, qasida, ta‘rix janrlaridagi nazmiy asarlari haqidagi olimning maqolalari ham ko‘pchilikka manzur bo‘lgan. “Sharq yulduzi” jurnali orqali o‘quvchilar hukmiga havola etilgan “Ilm andog‘ ganji nofi‘dur...”, “Tafakkur” jurnalida e‘lon qilingan “Ogahiyning ogohlik siri”, shuningdek, “Fasohatda nodir alloma” (“Xalq so‘zi”), “Mulk-u millatga emin o‘lsa agar ogohlari...” (“Fidokor”) kabi maqolalar shular jumlasidandir.

“Zubdatu-t-tavorix” asari nashriga so‘zboshi sifatida yozilgan maqolada, ta‘kidlash mumkinki, butun boshli dissertatsiyaning ilmiy yuki bor. Maqolada asarning o‘zbek va xorij olimlari tomonidan o‘rganilishi, dunyo fondlarida saqlanayotgan qo‘lyozmalari, asarning yozilish tarixi, syujeti, uning nafaqat tarixiy, balki adabiy jihatdan ham nodir manbalardan ekanligi masalalari chuqur tahlil etilgan.

Olimning yozishicha: *“Asarda ko‘plab nazm namunalari ham keltirilgan. “Zubdatu-t-tavorix”dagi she‘riy janrlarni quyidagicha tasnif etish mumkin: qasidalar (6 ta), masnaviylar (70 ta), g‘azallar (4 ta), ruboiylar (7 ta), qit‘alar (10 ta), ta‘rixlar (4 ta), fardlar (6 ta). Bundan tashqari, “nazm” sarlavhasida 16 ta she‘r berilgan. Fardlar esa “Bayt” sarlavhasi bilan kitobat etilgan. “Zubdatu-t-tavorix”dagi she‘rlar jami 1176 bayt (2352 misra)ni tashkil etadi”* [1, 16].

Garchi tarixiy mavzuda bitilgan bo‘lsa-da, asar badiiy-tarixiy nasr namunasi ekanligi, ijodkor fikrning ta‘sir kuchini oshirish maqsadida nazmdan mahorat bilan foydalangani, muallifning qasida va ta‘rix yaratishdagi mahorati matnshunos Nurboy

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Jabborov tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan puxta va teran tadqiq qilingan. O‘quvchi buni yaqqolroq his etishi uchun olimning qasidalar tahliliga oid fikrlarini to‘liq keltiramiz:

“Asarda qasida janriga oid 6 ta she’r berilgan bo‘lib, ularning hajmi 227 bayt (454 misra)ni tashkil etadi. “Qasidaning aqalli yigirma yetti bo‘lur yo andin o‘ksukrak va aksari muayyan ermas, – deb yozadi mashhur Shayx Ahmad Taroziy. – Har necha qofiya dast bersa ayturlar va har ne maqsud bo‘lsa bayong‘a keltururlar” [2,32].

Shayx Taroziy qasida janriga xos to‘rt xususiyatni alohida ta’kidlab ko‘rsatadi. Birinchisi – husni matla’, ya’ni qasidaning boshlanishi ma’no jihatidan mutlaqo qusursiz latif so‘zlardan tashkil topgan bo‘lishi kerak. Ikkinchisi – mamduh (maqtalguvchi)ning adl-u insofi ta’riflanishi zarur. Uchinchi – mamduhning shijoati, to‘rtinchi – saxovati maqtalishi lozim. “Va bu to‘rt xislatdin ortuq har nechakim sifat qilur, ixtiyor shoigr‘adur”.

“Zubdatu-t-tavorix”dagi barcha qasidalar ushbu janrning turkiy she’riyat nazariyotchisi zikr etgan talablariga to‘liq javob beradi. Masalan, asardagi birinchi qasidaning ibtidosi “Fununu-l-balog‘a”da aytilganidek, husni matla’ san’atining betakror namunasi sanaladi:

*Shahekim, ostoni ila topmish avji iste’lo –
Ki, gardun yastonib tufroqig‘a bir hovush adno.*

“Husni matla’”ni “husni ibtido” deb atagan Atoulloh Husayniyning yozishicha: *“Ul andog‘durkim, kalom boshinda nozikligu ravonlikta va alarning ziddi bo‘lmish qattiqig‘u matonatta bir-biriga yaqin bo‘lg‘an xushu latif lafzlardin pokiza, yoqimlig‘, mustahkam ibora tuzarlarkim, ma’no adosinda mutlaqan qusur bo‘lmag‘ay va tuzuk zehn andin maqsudg‘a bot o‘ta olg‘ay, lafzu ma’no orasinda munosabat rioya qilg‘aylar, yaxshi ma’noni yengil alfoz bila yo aksincha ado qilmag‘aylar, dag‘i baytning ikki misrai yo nasrning ikki bo‘lagi orasinda munosabat rioya qilg‘aylarkim, latofatu balog‘atta bir-biriga yaqin bo‘lg‘ay, biri a’loyu ikkinchisi adno bo‘lmag‘ay, ma’noning sog‘lom bo‘lmag‘ig‘a sa’y qilg‘aylarkim, kelishmagan, qarama-qarshi, yaramas, urfqa xilof va hokazo nimalardin sog‘lam bo‘lg‘ay...” [3, 250].*

Shayx Ahmad Taroziy ta’kidlagan ikkinchi xususiyat – mamduhning adl-u insofi vasf etilgan misralar ham Ogahiy qasidasida mavjud. Jumladan, shoir bunday yozadi:

*Inod ahlig‘a qahr, aftodalarg‘a lutf ko‘rguzsa,
Falak bo‘lg‘ay zamingiru zamin bo‘lg‘ay falakfarso.
Tutub ovozai adliki yetti aflok ayvonin,
Malak taslimgo‘yu ham duogo‘ydur hazrati Iso.(387^{ab})*

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Uchinchi – mazkur qasidada mamduhning shijoati ham teran ma’no va betakror badiiyat bilan ta’riflangan:

*Aning zoti humoyunini kilki kotibi qudrat
Yozib sohibqironlig‘ daftari unvonida tug‘ro.
Zihi sohibqironkim, qiron xasm ahlig‘a solib,
Sipohi qahri yetkurdi zalolat mulkiga yag‘mo.(387^b)*

To‘rtinchi – qasidada xonning saxovati ham fasohat va balog‘at bilan vasf etiladi. Qasidaning quyidagi misralari ham bu fikrni tasdiqlaydi:

*Xaloyiq naqdi ehsonidin oldi komin andoqkim
Gadoi benavo ahli g‘anog‘a qildi istig‘no.*

*Atovu baxshishining xonidin mahzuz o‘lub doim,
Duoi davlatig‘a ochdi til ham piru ham barno 387^b).*

Qasida matla’i nazariy qoidalarga muvofiq keladi. Xonning mazkur to‘rt fazilatini tavsiflash barobarida, Ogahiy mamduhning ilmu fazilat bobida kamolga erishganini, “*har fan ichra davron aro mumtozu mustasno*” quyidagicha ta’riflaydi:

*Kamoli borcha ilmu fazl aro ul yerga yetmishdur –
Ki, har fan ichradur davron aro mumtozu mustasno.*

Rahimqulixonning Xiva taxtiga kelishi tasodifiy emasligi, uning ajdodlari «xorazmshohlik niginin angushti iqtidorlarida tutub kelgan»i ham qasidada alohida zikr etilgan: “Na tanho dahr favqida hasab birla nasabda ham, Sarosar xonu xoqondur anga ajdod ila obo”.

Asarda muallifning saj’ san’atidan foydalanish mahoratiga doir ilmiy tahlillar ham olimning mumtoz she’r nazariyasini puxta bilishi va tadqiqot jarayonida mohirona qo‘llay olishidan dalolat beradi. Quyida olimning bu haqdagi qarashlarini keltiramiz: “Ogahiyning nasrda saj’ qo‘llash mahorati quyidagi birgina misol tahlilida ham yaqqol ko‘rinadi: “*Ziyofat lavozimining intihosi va aklu shurb marosimining inqizosidin so‘ng hazrati xoni mag‘fur va hazrati zillullohiy savlati tamom va umaroyi sohibeehtrom bila otlanib, otchopar tamoshosig‘a chiqdilar va qir ustida devnajod va sarsarnihod otlarni yorishturub, rustamquvvat va filhaybat pahlavonlarni kurash tutdurub, oti utgan sayislarni va harifin yiqitg‘on pahlavonlarni bayroq va jald u uchun xazinai ehsondin nuqudi farovon in‘om qilib, dunyodin mustag‘niy etdilar*”[4, 125]. Ushbu iqtibosda yetti saj’lanuvchi qism majud.

Ogahiy nasrida saj’ning yuqorida bayon etilgan barcha shakliy sifatlarini ko‘rish bilan birga, saj’lanuvchilarning o‘ziga xos joylashuv o‘rnini ham kuzatish mumkin. Yuqoridagi jumlada *lavozimi* fosilasidan oldingi qarina bir so‘zdan iborat bo‘lsa, unga

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

saj’lanuvchi *marosimi* fosilasidan oldin to‘rt so‘z qo‘llangan. Ba’zi saj’doshlar orasida esa qarina mavjud emas" [3, 252].

Bu kabi xususiyatlar, shubhasiz, olim tadqiqotlarining ilmiy-nazariy ahamiyatini oshiradi. Ko‘rinadiki, serqirra va sermahsul olimning ilmiy laboratoriyasi bugungi kunda yetishib kelayotgan yosh olimlar uchun o‘ziga xos namuna bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atoulloh Husayniy. Badoyi’u-s-sanoyi’. (Tarjimon: akademik Alibek Rustamiy). Toshkent, Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981, 250–251-betlar.
2. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Fununu-l-balog‘a. – T.: “Xazina”, 1996.
3. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Zubdatu-t-tavorix (Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi N.Jabborov). – T.: “O‘zbekiston”, 2009, 15-16-betlar.
4. Ogahiy – tarixnavis. /Atoqli shoir, tarixnavis, tarjimon (Maqolalar to‘plami). T.: “Xalq merosi”, 1999, 125 -140 -betlar.
5. Jabborov N. O‘zbek badiiy-tarixiy nasrining sara namunasi. -Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Zubdatu-t-tavorix.– T.: “O‘zbekiston”, 2009, 125-bet.
6. Umida, R. (2024). THE RELEVANCE OF RHYTHM IN PROSE FICTION. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1(1), 288-294.
7. Rasulova, U. (2024). Poetic Research in Modern Story-Writing. *SPAST Reports*, 1(1).
8. Rasulova, U. (2024). Insoniyat: asliyat va irsiyatning badiiy talqini. *Uzbekistan: yazyk i kultura*, 1(1), 33-45.